



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024-yil yanvar-avgust oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(76) 225-65-74



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 279 852,5 ming AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 71 554,1 ming AQSH dollariga yoki 34,4 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: **279 852,5** +34,4 %

(2023-y.: **208 298,4**)



Saldo

2024-y.: **85 743,1**(2023-y.: **59 033,6**)




Eksport

2024-y.: **182 797,8** +36,8 %

(2023-y.: **133 666,0**)

TSA'dagi ulushi, % da

65,3



Import


2024-y.: **97 054,7** +30,0 %

(2023-y.: **74 632,4**)

34,7













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi 182 797,8 ming AQSH dollariga (36,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 97 054,7 ming AQSH dollariga (30,0 % ko‘paydi). Hisobot davrida 85 743,1 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)










<p>Rossiya</p> <p>TSA – 73 623,4</p> <p>Eksport: 70 702,2 Import: 2 921,2</p> <p> 26,3 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 45 885,5</p> <p>Eksport: 39 732,4 Import: 6 153,1</p> <p> 16,4 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 39 200,1</p> <p>Eksport: 19 590,4 Import: 19 609,7</p> <p> 14,0 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 38 357,9</p> <p>Eksport: 11 245,3 Import: 27 112,6</p> <p> 13,7 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 24 137,4</p> <p>Eksport: 21 887,9 Import: 2 249,4</p> <p> 8,6 %</p>
<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 17 742,1</p> <p>Eksport: 9 188,1 Import: 8 554,1</p> <p> 6,3 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 11 946,1</p> <p>Eksport: 174,0 Import: 11 772,0</p> <p> 4,3 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 3 808,1</p> <p>Eksport: 1 407,6 Import: 2 400,5</p> <p> 1,4 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 3 503,8</p> <p>Eksport: 306,0 Import: 3 197,8</p> <p> 1,3 %</p>	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 2 804,1</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 2 803,9</p> <p> 1,0 %</p>









Surxondaryo viloyati jahonning 65 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (26,3 %), Pokistonda (16,4 %), XXRda (14,0 %), Turkiyada (13,7 %), Afg‘onistonda (8,6 %), Qozog‘istonda (6,3 %), Germaniyada (4,3 %), Eron (1,4 %), Hindistonda (1,3 %), va Turkmaniston (1,0 %) qayd etilgan.



SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari)


	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Rossiya	54 863,5	16 429,0	73 623,4
	<i>Eksport</i>	16 779,6	12 117,0	70 702,2
	<i>Import</i>	38 083,9	4 312,0	2 921,2
	Pokiston	45 420,5	50 495,8	45 885,5
	<i>Eksport</i>	25 153,4	37 593,8	39 732,4
	<i>Import</i>	20 267,1	12 902,0	6 153,1
	XXR	63 439,5	47 056,9	39 200,1
	<i>Eksport</i>	38 185,0	24 567,6	19 590,4
	<i>Import</i>	25 254,5	22 489,2	19 609,7
	Turkiya	17 805,0	10 889,2	38 357,9
	<i>Eksport</i>	12 973,0	5 253,4	11 245,3
	<i>Import</i>	4 832,0	5 635,8	27 112,6
	Afg'oniston	12 698,1	36 541,0	24 137,4
	<i>Eksport</i>	12 280,8	35 871,4	21 887,9
	<i>Import</i>	417,3	669,6	2 249,4
	Qozog'iston	30 931,5	13 861,7	17 742,1
	<i>Eksport</i>	23 549,2	5 927,4	9 188,1
	<i>Import</i>	7 382,3	7 934,3	8 554,1
	Germaniya	2 288,5	2 217,7	11 946,1
	<i>Eksport</i>	1 437,3	469,6	174,0
	<i>Import</i>	851,2	1 748,1	11 772,0
	Eron	4 770,6	2 096,2	3 808,1
	<i>Eksport</i>	3 841,6	1 310,0	1 407,6
	<i>Import</i>	929,0	786,3	2 400,6
	Hindiston	3 283,0	2 899,4	3 503,8
	<i>Eksport</i>	523,6	1 113,0	306,0
	<i>Import</i>	2 759,5	1 786,4	3 197,8
	Turkmaniston	1 008,4	994,5	2 804,1
	<i>Eksport</i>	309,8	171,0	0,2
	<i>Import</i>	698,6	823,5	2 804,0

Davlatlar		2022-y.	2023-y.	2024-y.
Koreya Respublikasi		1 122,1	849,7	2 014,9
	<i>Eksport</i>	13,5	0,03	0,5
	<i>Import</i>	1 108,6	849,7	2 014,4
Polsha		499,1	1 438,7	1 878,0
	<i>Eksport</i>	413,1	1 069,9	1 477,2
	<i>Import</i>	86,0	368,8	400,8
Tojikiston		7 933,8	8 124,8	1 716,7
	<i>Eksport</i>	1 991,0	2 613,2	1 055,7
	<i>Import</i>	5 942,8	5 511,6	661,0
Belarus		1 642,3	1 014,4	1 631,7
	<i>Eksport</i>	1 362,5	702,0	1 553,0
	<i>Import</i>	279,8	312,4	78,7
Avstriya		580,4	0,03	1 445,3
	<i>Eksport</i>	-	0,03	0,1
	<i>Import</i>	580,4	-	1 445,2
Ekvador		664,4	117,7	1 328,3
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	664,4	117,7	1 328,3
Qirg'iz Respublikasi		7 391,5	711,4	693,9
	<i>Eksport</i>	6 458,6	638,7	203,3
	<i>Import</i>	933,0	72,7	490,7
Estoniya		238,9	223,2	658,9
	<i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
	<i>Import</i>	238,9	223,1	658,8
Latviya		0,1	108,3	608,9
	<i>Eksport</i>	0,1	108,3	599,9
	<i>Import</i>	-	0,05	9,0
Ozarbayjon		1 181,0	729,3	529,8
	<i>Eksport</i>	1 181,0	729,3	529,8
	<i>Import</i>	-	-	-



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2024-yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)*



Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani 14,2 % ulush bilan 39 823,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun tumanida 2,9 % ulush bilan 8 070,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 15,0 % ga ko'paydi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-avgust oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 15,0 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 64,6 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, 99 028,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 83 519,4 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 15 509,5 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI

(2024-yil yanvar-avgust, ulushi, % da)

Rossiya – 74,3



Qozog'iston – 17,9



Turkmaniston – 2,8



Tojikiston – 1,7



Belarus – 1,6



Qirg'iz
Respublikasi – 0,7



Ozarbajjon – 0,5



Ukraina – 0,2




Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (74,3 %), Qozog'iston (17,9 %), Turkmaniston (2,8 %), Tojikiston (1,7 %) hamda Belarus (1,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.


SURXONDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust, ming AQSH dollari)





**Jami tashqi savdo
aylanmasidagi ulushi**



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



Surxondaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 93 729,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 81 685,2 ming AQSH dollari, import hajmi esa 12 044,6 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni 231 taga yetdi va ular tomonidan 182 797,8 ming AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 36,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-avgust, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	133 666,0	182 797,8	90,2	136,8	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	66 429,6	119 380,1	95,7	179,7	49,7	65,3
Ichimliklar va tamaki	844,4	47,8	80,6 m.	5,7	0,6	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 786,7	4 138,1	59,5	109,3	2,8	2,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	194,9	452,2	97,7	2,3 m.	0,1	0,2
Sanoat tovarlari	51 207,0	45 709,1	78,1	89,3	38,3	25,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	213,4	1 010,2	2,1 m.	4,7 m.	0,2	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	7 405,5	7 967,4	2,3 m.	107,6	5,5	4,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	253,8	-	-	-	0,1
Xizmatlar	3 584,5	3 839,1	167,0	107,1	2,7	2,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,9 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (65,3 %), sanoat tovarlari (25,0 %), turli xil tayyor buyumlar (4,4 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (2,3 %) va xizmatlar (2,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-avgust)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	110 741,6	2,2 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8 517,2	56,5
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	61,9	106,0
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar	39,7	191,7
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	10,3	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	9,5	120,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	2 443,2	3,2 m.
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	1 210,7	82,1
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	367,4	147,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	114,5	8,8
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk)	2,4	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yoqlar, taninlar va bo'yoqlar	417,0	2,2 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	29,7	6,5 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	2,8	177,4 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,3	3,3 m.
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	1,1	79,3
Kimyoviy vositalar	0,2	7,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	611,9	3,0 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	200,0	-
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	107,0	31,5 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari)	85,6	15,1 m.
Kantselyariya mashinalari va avtomatik ma'lumotlarni qayta ishlash uskunolari	3,2	-
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2,5	-


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	43 764,2	88,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	1 775,6	173,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	133,3	35,4
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	23,7	5,7 m.
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	6,6	68,3 m.
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	5,7	8,9
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	1 298,5	119,0
Transport xizmatlari	927,9	93,4
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	779,1	123,0
Boshqa biznes xizmatlari	443,2	133,5
Sayohat	390,4	73,1
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	7 562,4	110,2
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	335,0	83,7
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	33,4	140,3
Har xil tayyor mahsulotlar	23,6	125,0 m.
Poyabzal	12,9	10,9

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlarga 83 519,4 ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 45,7 % tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Afg'oniston, XXR, Turkiya, Qozog'iston va Belarus kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 95,1 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI

(2024-yil yanvar-avgust, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	12 117,0	70 702,2	72,2	5,8 m.	4	1
Pokiston	37 593,8	39 732,4	149,5	105,7	1	2
Afg'oniston	35 871,4	21 887,9	2,9 m.	61,0	2	3
XXR	24 567,6	19 590,4	64,3	79,7	3	4
Turkiya	5 253,4	11 245,3	40,5	2,1 m.	6	5
Qozog'iston	5 927,4	9 188,1	25,2	155,0	5	6
Belarus	702,0	1 553,0	51,5	2,2 m.	13	7
Polsha	1 069,9	1 477,2	2,6 m.	138,1	10	8
Eron	1 310,0	1 407,6	34,1	107,4	8	9
Tojikiston	2 613,2	1 055,7	131,2	40,4	7	10
Latviya	108,3	600,0	2023,4 m.	5,5 m.	23	11
Ozarbayjon	729,3	529,8	61,7	72,6	12	12
Portugaliya	-	524,1	-	-	-	13
Bangladesh	-	464,7	-	-	-	14
Hindiston	1 113,0	306,0	2,1 m.	27,5	9	15
Bolgariya	18,7	229,2	-	12,2 m.	26	16
Ukraina	349,5	225,4	181,1	64,5	18	17
Irok	398,8	219,7	111,1	55,1	17	18
Qirg'iz Resp-si	638,7	203,3	9,9	31,8	14	19
Germaniya	469,6	174,0	32,7	37,1	16	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)*



2023-y.

2024-y.

Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani **11,1 %** bilan **20 292,3** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun **3,2 %** bilan **5 915,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-avgust oylarida 225 736,9 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,7 m. yoki 165 007,6 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (54,1 %), Pokiston (30,1 %), Qozog'iston (7,5 %), Afg'oniston (5,3 %) hamda Belarus (0,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024-yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 116 591,0 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 183,1 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 63,8 % ni tashkil etdi.




MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-avgust, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)


<p>Uzum quritilgan</p> <p>183 ming AQSH dollari</p> <p>115,1 tonna</p> <p>96,0 % ↓</p>	<p>Karam</p> <p>6 899,2 ming AQSH dollari</p> <p>31 607,5 tonna</p> <p>11,5 m. ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>22 683,8 ming AQSH dollari</p> <p>99 987,5 tonna</p> <p>8,6 m. ↑</p>	<p>Dukkakli donli ekinlar</p> <p>22 848,3 ming AQSH dollari</p> <p>5 960,8 tonna</p> <p>24,7 % ↓</p>
<p>Uzum</p> <p>9 439,9 ming AQSH dollari</p> <p>11 298,0 tonna</p> <p>16,3 m. ↑</p>	<p>Yer yong'oq</p> <p>2 219,7 ming AQSH dollari</p> <p>1 234,4 tonna</p> <p>4,7 m. ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>361,7 ming AQSH dollari</p> <p>292,6 tonna</p> <p>10,5 % ↓</p>	<p>Meva va rezavorlar</p> <p>27 697,1 ming AQSH dollari</p> <p>28 557,7 tonna</p> <p>49,7 % ↑</p>
<p>Sabzavotlar</p> <p>14 045,5 ming AQSH dollari</p> <p>23 283,9 tonna</p> <p>3,5 m. ↑</p>	<p>Pomidor</p> <p>7 689,6 ming AQSH dollari</p> <p>10 555,2 tonna</p> <p>7,6 m. ↑</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>2 524,4 ming AQSH dollari</p> <p>12 844,3 tonna</p> <p>3,9 m. ↑</p>	



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-avgust)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	137 298,9	63 017,5	54,1
 Pokiston	40 518,6	35 148,4	30,1
 Qozog'iston	30 792,8	8 732,5	7,5
 Afg'oniston	12 566,7	6 147,1	5,3
 Belarus	1 714,5	1 103,1	0,9
 Latviya	1 182,9	597,6	0,5
 Ozarbayjon	295,9	439,2	0,4
 Ukraina	338,1	222,8	0,2
 Polsha	153,6	219,5	0,2
 Germaniya	76,7	173,7	0,1
 Eron	143,9	165,6	0,1
 Turkiya	41,7	122,6	0,1
 Malayziya	12,6	93,9	0,1
 Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	19,0	83,1	0,1
 AQSh	13,0	76,4	0,1
 Tojikiston	175,6	68,3	0,1
 Boshqa davlatlar	392,4	179,6	0,2

* qiymat ifodasidan

 2024-yil yanvar-avgust oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 54,1 %).



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024-yil yanvar-avgust oyi yakuni bo'yicha 51 325,9 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 28,1 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 10,5 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (77,0 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (14,7 %), gazlamalar (6,4 %), va gilamlar (0,3 %), asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning 19 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari)



DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

		2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati, % da
	XXR	19 301,2	19 590,3	101,5
	Turkiya	4 604,8	10 000,4	2,1 m.
	Afg‘oniston	25 383,5	8 242,8	32,5
	Rossiya	4 023,1	4 804,8	119,4
	Pokiston	961,9	4 463,5	4,6 m.
	Polsha	621,2	1 257,5	2,0 m.
	Eron	53,1	1 241,9	23,4 m.
	Portugaliya	-	524,1	-
	Bangladesh	-	464,7	-
	Bolgariya	-	229,2	-
	Boshqa davlatlar	2 375,6	506,7	21,3




To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi XXR (38,2 % – 19 590,3 ming AQSH dollari), Turkiya (19,5 % – 10 000,4 ming AQSH dollari), Afg‘oniston (16,1 % – 8 242,8 ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (9,4 % – 4 804,8 ming AQSH dollari) va Pokiston (8,7 % – 4 463,5 ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 3 839,1 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,1 % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (33,8 %), transport (24,2 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (20,3 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (11,5 %) va safarlar (turizm) (10,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



SURXONDARYO VILOYATINING IMPORTI



2024-yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 97 054,7 ming AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 130,0 % tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (63,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,2 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (4,4 %) hamda sanoat tovarlari (4,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22 455,4 ming AQSH dollariga ko'paydi va 96 574,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 480,3 ming AQSH dollariga yetdi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	74 632,4	97 054,7	64,4	130,0	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18 450,4	17 678,1	62,7	95,8	24,7	18,2
Ichimliklar va tamaki	229,6	1 463,8	-	6,4 m.	0,3	1,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 111,7	1 214,2	62,1	109,2	1,5	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 424,0	3 083,0	3,9 m.	2,2 m.	1,9	3,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	347,6	98,1	7,6 m.	28,2	0,5	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 585,0	4 295,9	64,0	166,2	3,4	4,4
Sanoat tovarlari	14 470,3	4 511,1	31,8	31,2	19,4	4,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	33 945,7	61 566,0	105,5	181,4	45,5	63,4
Turli xil tayyor buyumlar	1 554,8	2 664,1	69,3	171,4	2,1	2,7
Xizmatlar	513,4	480,3	2,7 m.	93,6	0,7	0,5



XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

(2024-yil yanvar-avgust)

XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	8 672,2	71,0
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4 006,3	10,0 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3 764,7	72,6
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	511,0	162,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	323,0	-
Shakar, shakardan mahsulotlari va asari	244,1	161,9
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	126,9	90,1
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	27,1	55,0
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2,5	-
Balik	0,4	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	788,4	158,3
Xayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	349,1	105,4
Probka va yog'och taxtalar	58,3	22,6
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	15,9	134,7
Qog'oz massasi	2,5	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 852,1	2,0 m.
Ko'mir, koks va briketlar	230,9	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2 608,8	165,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	522,4	129,2
Noorganik kimyoviy moddalar	369,3	188,0
Organik kimyoviy moddalar	312,5	2,7 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	199,4	3,2 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	107,0	2,2 m.
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	75,8	102,4
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	55,4	69,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	45,2	194,2


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Turli xil tayyor buyumlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	894,3	19,5 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	834,7	94,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari blokli binolar, armatura va mahkamlash	575,0	127,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	208,4	104,7 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	86,0	55,3
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	57,3	4,1 m.
Poyabzal	7,1	7,5 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	1,3	261,6 m.
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	3 110,9	78,8
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	619,3	9,2
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	321,6	48,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	265,6	9,8
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	109,0	42,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	41,5	43,3
Rangli metallar	25,7	137,1
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	17,7	22,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	36 153,6	2,1 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	14 024,6	3,0 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3 768,2	5,3 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 600,5	81,2
Metallni qayta ishlash mashinalari	2 100,5	4,8 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	1 462,4	19,1
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1 131,3	69,1 m.
Boshqa transport vositalari	198,2	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	126,8	21,5 m.



2024-yil yanvar-avgust natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 16,0 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-avgust oylarida viloyatimiz 40 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, Germaniya, XXR, Qozog'iston, Pokiston, Iron va Hindiston) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-avgust, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Turkiy	5 635,8	27 112,6	116,6	4,8 m.	4	1
XXR	22 489,2	19 609,7	89,1	87,2	1	2
Germaniya	1 748,1	11 772,0	2,1 m.	6,7 m.	9	3
Qozog'iston	7 934,3	8 554,1	107,5	107,8	3	4
Pokiston	12 902,0	6 153,1	63,7	47,7	2	5
Hindiston	1 786,4	3 197,8	64,7	179,0	8	6
Rossiya Federatsiyasi	4 312,0	2 921,2	11,3	67,7	6	7
Turkmaniston	823,5	2 804,0	117,9	3,4 m.	12	8
Eron	786,3	2 400,6	84,6	3,1 m.	13	9
Afg'oniston	669,6	2 249,4	160,4	3,4 m.	15	10
Koreya Respublikasi	849,7	2 014,4	76,6	2,4 m.	11	11
Avstriya	-	1 445,2	-	-	-	12
Ekvador	117,7	1 328,3	17,7	11,3 m.	25	13
Tojikiston	5 511,6	661,0	92,7	12,0	5	14
Estoniya	223,1	658,8	93,4	3,0 m.	25	15
Qirg'iz Respublikasi	72,7	490,7	7,8	6,7 m.	27	16
Shveysariya	119,6	466,4	6,1 m.	3,9 m.	23	17
Polsha	368,8	400,8	4,3 m.	108,7	17	18
Chexiya	187,4	400,0	70,1	2,1 m.	22	19
Meksika	-	301,7	-	-	-	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024-yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)*




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Angor 20,1 % bilan 19 530,7 ming AQSH dollarini, eng quyi, Qiziriq 0,1 % bilan 142,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024-yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 4 511,1 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68,8 % kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 4,7 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN HAMKOR DAVLATLAR (2024-yil yanvar-avgust)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (3 110,9 ming AQSH dollari), noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (619,3 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (321,6 ming AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (265,6 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (109,0 ming AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar (41,5 ming AQSH dollari), rangli metallar (25,7 ming AQSH dollari), va probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (17,7 ming AQSH dollari) tashkil topgan.